


Buxoro tuman Axborot-kutubxona markazi

Axborot bibliografiya xizmati

“O‘zbek va tojik adabiyotining yorqin namoyondasi”

Bibliografik qo‘llanma



Buxoro 2026 yil

Ushbu bibliografik qo'llanma XIX asrning so'nggi choragida tug'ilib, XX asrning o'rtalariga qadar yashab ijod etgan, o'zbek va tojik adabiyotlari taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shgan yozuvchi Sadriddin Ayniy hayoti va ijodiga bag'ishlab tuzildi. Qo'llanmada Sadriddin Ayniyning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar shuningdek, Ayniy haqidagi muhim sanalar, fotosuratlar va adabiyotlar ro'yxati berilgan. Qo'llanmadan mutaxassislar va Ayniying ijodiga qiziquvchi kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

**Hech ikkilanmasdan aytish joizki,
Sadriddin Ayniy ijodiyoti XX asr dunyo adabiyotining
eng nodir, eng e'tiborli va eng mazmundor
sahifalardan hisoblanadi. Ayniy badiiy ijodining poydevori ilm,
ma'rifat, tarix, hayot va haqiqatdir.
Ayniy asarlarini bilish qo'xna Sharq tarixi, madaniyati ,
mumtoz adabiyoti va milliy qadriyatlarni anglashga yo'l ochadi.**

IBROHIM HAQQUL

Sadriddin Ayniy XX asrning buyuk va takrorlanmas yozuvchisidir. Uning hayot va ijod yo'li XIX asrning oxirgi choragi va XX asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy jarayonlarning g'oyatda murakkab va dolg'ali o'zanlarida kechdi. Yigirma yilga yaqin madrasa ta'limini olgan, amirlik tuzumining hamda keyingi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni ichichidan bilgan, ba'zan qatag'onliklar va kamsitishlarga uchragan bu ulkan adib o'z asarlarida xalq hayotini butun murakkabliklari bilan badiiy tasvirlash orqali tarix va davrni o'ziga xos birlashtirib, XX asrning avvalida shakllana boshlagan yangi adabiyotning asoschilaridan biri, yirik adabiy siymo sifatida bo'y ko'rsata oldi. Sadriddin Ayniy hayotligidayoq G'arb va Sharq mamlakatlarida tanilgan hamda chexiyalik doktor Irji Bechka, olmoniyalik doktor Manfred Lorents, eronlik professor Sayid Nafisiy, afg'onistonlik adib Sarvari Go'yo, rossiyalik professor Aleksandr Boldirevlar ham, mashhur darg'alarimiz G'afur G'ulom, Oybek, Komil Yashin, Mirzo Tursunzoda va Zulfiyaxonimlar ham ustod Ayniy deb ardoqlagan va e'tirof etgan ulug' siymo edi. Vafotidan keyin (1954) bu siymoning e'tibori, qoldirgan ilmiy-adabiy merosining qadr-qiymati yanada ko'rkamroq va salmoqliroq tarzda qadrlana boshladi. 1962-yili Osiyo va Afrika yozuvchilarining Qohirada o'tkazilgan anjumanida ustod Ayniy hindistonlik Robindranat Tagor, xitoylik Lu Sin, qohiralik Toho Husayn qatorida Sharqning mumtoz adibi deb e'lon qilindi. 1978-yilda esa ustod Ayniy tavalludining 100 yilligi YuNESKO qarori bilan keng nishonlandi. Mustaqillik davrida Vatanimizning ulkan mukofoti – "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. XX asr adabiyoti va ilmining ardoqli siymolaridan biri bo'lgan ustod Ayniyning olijanob shaxsiy fazilati, boy ilmiy-adabiy merosi mumtoz adabiyot va madaniyat tarixini sinchiklab xolisona o'rganishda, XXI asr kishilarini, kelajagi porloq O'zbekistonning barkamol yoshlarini vatanparvarlik,

xalqsevarlik va fidoyilik, halollik pok e'tiqodlilik ruhida tarbiyalashda o'z hissasini qo'shadigan umrboqiy ma'naviy ilmiy boyligimizdir.

SADRIDDIN AYNIYNING HAYOTI VA IJODI

Said Murodxo'ja o'gli Sadriddin Ayniy Buxoro Amirligigiga qarashli G'ijduvon tumani Xo'jasoktare qishlog'ida milodiy 1878-yil 15-aprelda dehqon oilasida dunyoga kelgan. Ayniyning ota-bobolari usta-me'mor bo'lgan. Katta bobosi Said Ahmadxo'ja Kubroviya tariqatida bo'lgan. Bobosi Saidumarxo'ja ilmiy, ma'rifatli kishi bo'lgan. Ular usta-hunarmand bo'lgani bois ham ba'zan qishloqdan qishloqqa ko'chib yurgan. Ayniyning hayot yo'li, qarindoshlari, do'stlari haqida asosan uning yozgan asarlaridan ma'lum. Jumladan, uning "Qisqacha tarjimai holim", "Esdaliklar" nomli kitoblari asosiy manba hisoblanadi. "Esdaliklar", "Eski maktab" asarlarida otasi Said Murodxo'ja xatsavodli kishiligi bilan boshqalardan ajralib turishi aytiladi va ushbu gapning isboti sifatida Sadriddinning akasi Muhiddinxo'jani Mir Arab madrasasiga, Sadriddinni esa qishloq eski usul maktabiga berganini ko'rish mumkin. Demakki, Ayniyning ta'limga qiziqishiga birinchi navbatda otasi sabab bo'lgan. Xususan, "Esdaliklar" kitobida "Otam, men ham usta amaking tomonidan shu-yil bino qilingan o'z masjidimizning ayvoni tarixi chiqadigan bir she'r yozganman", – deb to'rt misrali tojikcha sodda bir she'rni o'qiydi. Ba soli murg'in ayvon bino shud, Bideh bo murg'i o'tu dona. Ayniy 6 yoshida qishloq maktabiga boradi (buni "Eski maktab" da aynan o'qish mumkin), ammo u yerda to'g'ri saboq ololmagani uchun keyinchalik qishloqdagi otinoyi maktabiga beriladi. Shuningdek, darsdan tashqari otasining o'zi unga abjad hisobini o'rgatadi. Oilada kichik Sadriddin Ayniyning o'zidan 8 yosh katta akasi Muhiddinxo'ja (avlodlari Ayniy kunlarda Buxoro vil. 4 G'ijduvon tumani Soktare qishlog'ida yashab keladi), shuningdek ukalari Sirojiddinxo'ja va Kiromiddinxo'ja (ular yoshligida vafot etgan)lar bo'lgan. "Esdaliklar" asarida Ayniy otasining ustachilik ishlari sababli bolaligi ikki qishloqda – ota-bobo qishlog'i G'ijduvon tumani Soktare va tog'alari qishlog'i Shofirkon tumani Mahallai Boloda o'tganligini aytadi. Said Murodxo'ja o'g'li Sadriddinning ustoz Ayniy bo'lishida eng katta sabab uning otasidir. Sadriddin Ayniy bolaligida birinchi marta "she'r" va "shoir" so'zlarini otasi Saidmurodxo'jadan eshitadi. Birinchi ko'rgan shoiri – otasining o'rtog'i Soktare qishloqdagi hovlilariga mehmon bo'lib kelgan Iso taxallusli shoir edi.



Ayniy maktablarga borgan bo'lsa-da unga ilk ta'limni otasi bergan. Ammo Sadridдин juda erta – 1889-yil Sadridдин Ayniy 11 yoshida vabo tugayli 57 yoshli otasidan, shuningdek onasi Zevaroydan ayrilgan. O'shanda akasi Muhiddinxo'ja 19 yoshda, ukasi Sirojiddinxo'ja 9 yoshda, Kiromiddin 4 yoshda bo'lgan. Oradan vaqt o'tib, Kiromiddin ham kasallikdan vafot etadi. Ayniy Buxoro madrasasiga borish umidida yurganida bir shaharlik mullavachcha bilan “baytbarak” o'ynab Sharifjon Maxdum e'tiboriga tushgani uning yutuqlariga, kelajagiga poydevor qo'ygan ilk muhim omil desak xato bo'lmaydi. Ilm-fan va she'riyat orzusi Ayniy 12 yoshida Buxoroga olib keldi, 13 yoshidan boshlab Mir Arabda o'qiy boshladi. Ayniy kabi faqir olimlarning Buxoro madrasalariga kirib, o'qishi juda qiyin edi. U bu davr mobaynida juda ko'p ishlarga qo'l uradi. Qishloqda jo'xori ekadi, qovoq yetishtiradi. Shular bilan otasining marakasining qarzini, tog'alaridan qarzini uzadi, hatto Mir Arabda o'qiydigan akasiga qarashadi. Madrasaga o'qishga borganidan keyin farroshlik qiladi. Biroq o'zining ilmga bo'lgan ishtiyoqi, izlanuvchanligi tufayli hayot va ta'limning barcha qiyinchiliklarini yengib o'tib, o'n olti yil Buxoro madrasalarida tahsil oldi. Ayniy 1891-yil Mir Arab, 1892-93-yillarda Olimxon, 1894-96-yillarda Hoji Zohid, 1896-99-yillarda Badalbek, so'ngra Ko'kaldoshlar madrasalarida tahsil olib, 1908-yilda uni tamomlagan. U bir necha vaqt Sharifjon Maxdum hovlisida dastyor bo'lib xizmat qilgan. Sharifjon Maxdum ma'rifatparvar inson bo'lib, Sadri Ziy o taxallusi bilan she'rlar bitgan. Uning uyida tez-tez adabiy suhbatlar o'tkazilgan. Bu suhbatlarda ilmga chanqoq, iste'dodli Sadridдин ham qatnashib, adabiyot olamiga kirib borgan. Sadridдин Ayniy “Qisqacha tarjimai holim” asarida bir voqeani bayon etadi. 1902-yillar uning sobiq xo'jayini Sharifjon maxdum Karkiga qozi bo'ladi. O'sha-yili yozda Ayniyga maktub yozib, uni Karkiga kelishini so'raydi. Ayniy Karkiga borsa, uning mirzasi Mirzoahmad degan yigit xomush bo'lib o'tiribdi. Ayniy undan buning sababini so'raydi. U: “Qozi menga akasidan bir xat kelganini, shunga javob yozish

kerakligini, maktubda ham tabrik, ham ta'ziya bayon etilishini topshirgan, lekin men bunday maktubni yozolmayman. Endi qozi meni ishdan bo'shatadi", – deydi. Shunda Ayniy maktubning javobini men yozib bersam, qancha pul berasiz", – deydi. Mirzoahmad. "Agar siz yozgan maktubni men ko'chirib, qoziga olib borsam, u ma'qullasa, nimani xohlasangiz beraman", – deb javob beradi. Ayniy farzandlarni daraxt shoxlariga o'xshatib, birining kesilishi, qolganlarining kamol topishiga sabab bo'ladir mazmunida bir chiroyli maktub yozib beradi. Mirza maktubni ko'chirib, qoziga olib boradi va xursand bo'lib keladi. Ayniy Sharifjon Maxdum huzuriga kirgach, u xatni ko'rsatib, "Mirzam bunday xatni yozishga qobiliyatli emas, unga bu xatni birov yozib bergan. Biroq har qancha o'ylasam ham bu atrofda shunday xatni yoza oladigan biror kishi esimga kelmayapti. Unga bu maktubni sen yozib bergansan", – deydi. Sir oshkor bo'lgach, Sharifjon Maxdum "Men "Tazkir ul ash'or" kitobimda seni nasrda bo'shroq, nazmda iqtidorli desam, sen nazmda ham, nasrda ham iqtidorli ekansan. Men xato qilibman", – deydi. U sandiqdan bir yangi chopon olib Ayniyga kiydiradi, "mukofot" deb 100 tanga naqd pul ham beradi. Bir vaqtlar uning eshigida 8 oy xizmat qilganida hech narsa bermagan Sharifjon Maxdum bugun birgina maktub uchun Ayniyga chopon yopayotgan edi. Sharifjon Maxdum Ayniy haqida bir she'r yozib, uni tazkirasiga kiritadi: Yake az najiboni ravshan ravon, Ki borad vatan xittai G'ijduvon. Ba fazlu hunar sho'hrai xosu om, Laqab Ayniy Sadriddin Xoja nom. Sadriddin Ayniy Buxoro madrasalarida o'qigan kezlari (1890-1891) o'zining birinchi asarini yozgan



Ayniy ilk ijod namunalarini 14-15 yoshlaridan yozishni boshlagan. Sadriddin Ayniy o'zining "Qisqacha tarjimayi holim" asarida qanday taxalluslar qo'llagani va oxiri nega Ayniy taxallusiga to'xtagani haqida so'z yuritadi. Manbaga ko'ra Sadriddin "Sifliy", "Muhtojiy", "Jununiy" kabi turli taxalluslar bilan she'rlar yozgan. "Sifliy" – past, kishilar meni past sanar ekan, nega men o'zimni past bilar ekanman, men shunchaki muhtojman deya, keyinchalik "Muhtojiy" taxallusini tanlaydi. Ammo nega men o'zimni muhtojligimni oshkor qilishim kerak deya, odamlar Ayniyini "biroz telbaligi bor" deya ta'riflaganlari uchun "Jununiy" taxallusini qo'llay boshlaydi. Ayniyning Muhtojiy va Jununiy taxallusi bilan yozilgan she'rlari saqlanib qolmagan. Ammo Sifliy taxallusi bilan yozilgan Xoliq g'azaliga bitilgan muxammas saqlangan. Sifliyi bechoram, sar to po kardam g'alat (Sifliyi bechoram, boshdan to oyoqqacha xato qildim) Biroq oxir-oqibat Sadriddin kishilar taxallusni ma'nosi bilan qiziqib so'rashini hisobga olib lug'at ko'rib o'ziga lug'atda "ko'z, ko'rmoq, chashma, buloq, suv, o'xshashlik, mohiyat, quyosh, oltin,..." kabi 48 xil ma'noga ega Ayniy taxallusini tanlaydi. Ammo asosan ko'z va quloq ma'nolariga nisbat berib tanlaganini ta'kidlaydi. "Esdaliklar" da ana o'sha tafsilotlar haqida o'qiymiz:

"...Bu so'zni boshqa shoirlar tarafidan taxallus sifatida olinmaganiga qanoat hosil qilgach, ko'z, chashma yoki sopqon tosh otadigan charm ma'nosida "Ayniy" so'zini o'zimga taxallus qilishga qaror qildim. Mening shoirligim va taxallusim shoirlar havasidagi yoshlarga ma'lum bo'lgandan so'ng, ular mendan she'r va uning ma'nosini surishtirmay, taxallusimning ma'nosini so'rabsurishtirar edilar, men esa: "– Bu so'zning qirq sakkiz ma'nosi bor. O'zlaringiz lug'at kitoblarini o'qib bu so'zning ma'nolarini bilib olinglar, ularni tushuntirishga mening vaqtim yo'q", – der edim. Mening javobim so'rovchilarni yana ko'proq hayratga solar va yoshligim tufayli bu javobimdan o'zim ham zavqlanar edim". Bu taxallusda ilk bora "Guli surx" she'ri Buxoroyi sharifda shakllangan an'anaga binoan har-yili aprel-may oylarida Bahouddin Naqshband mazoroti atrofida qizil lolalar ochilishi munosabati bilan tashkil qilinadigan ommaviy saylga bag'ishlab yozilgan.

SADRIDDIN AYNIYNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR



Sadriddin Ayniy Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoye” va Ozarbayjon yozuvchisi Xoja Marogʻiyning “Ibrohimbekning sayyohati” nomli kitoblarini oʻqib, unda ijtimoiy adolatsizlik va johillikka qarshi norozilik kayfiyatlari kuchayadi. U tatar maktabida muallim-tarjimon boʻlib ishlagan Mirza Abdulvohid bilan doʻstlashib, uning hovlisida maktab ochadi. Ayniy yangi usul maktablarida tatar tilida darsliklar bor, ammo bu yangicha darsliklarni Buxoroning tili tojik boʻlgan bolalari tushunmaydi, muallimlar ham tarjimonlik qila olmaydi degan fikrni bildiradi va uning oʻzi maktablarda bepul tarjimon boʻlib ishlashga qaror qiladi. Ikkala doʻst birgalikda “Alifbo» va “Oʻqish kitobi”ini yaratadi. Ayniy va Munzim 1908-1909-yillarda Buxoroda, Munzim uyida “Yangi usul” maktabi ochib, yoshlarni oʻqita boshlaganlar. 1909-yilda Sadriddin Ayniy yozgan “Tahzib us-sibyon” (“Bolalar tarbiyasi”) oʻqish kitobi bosmadan chiqdi. Muallifning eʼtiroficha, “bu adabiy kitob xarakterida boʻlib, bolalarni xiyla zavqlantirar edi”. Darslik oʻqituvchiga metodik maslahat beruvchi (“Ogoh etish”) uqtirishi bilan boshlanib, dastavval “Tarbiyali bola” sarlavhali didaktik maqola berilgan. Soʻngra shu didaktik maqoladagi fikrlar “Hikoyat”, “Odobli bola”, “Ota-ona” va “Savol-javob” sarlavhali maqolalarda rivojlantirilgan. Chunonchi, “Hikoyat”da Yoʻldosh ismli oʻquvchining yolgʻonchiligi, har gal qalamini oʻzi sindirib, boshqa biror safdoshi boshiga qoʻyib, uni gunohkorga chiqarish bilan shugʻullanishi, har qancha nasihat qilinsada, qulogʻiga olmagan, baribir yolgʻon tuhmat qilishdan toymay, oxiri safdoshlari muallim va mudarris boʻlib yetishganlari holda u hammol boʻlib yashashga mahkum boʻlgani bayon qilingan.

Shuningdek, u yozgan darslik xarakteridagi asarlari orasida “Qiz bola yoki Xolida” qizlar maktabiga moʻljallangan boʻlib, oʻzbek tilida yozilganligi bilan ajralib turadi.

Bu adabiy-axloqiy asar adibning yangi jadid maktablari uchun tuzilgan dastlabki asarlaridan edi. “Qiz bola yoki Xolida” o‘ttiz darsga mo‘ljallangan. Ularda nazariy bilimning amaliyot bilan aloqadorligi, mehnatning foydasi va mehnatsevarlik, xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va boshqa qator masalalar to‘g‘risida bahs yuritilib, muallif ular talqini jarayonida Xolida shaxsining kamol topishini ko‘rsatishga harakat qiladi. Asarning asosiy qahramoni – Xolida. Darslikdagi 16 lavhada bevosita uning xulqi, ishlari va boshqalarga munosabati haqida gapirilsa, lavhasida o‘qishi va tarbiyasi xususida to‘xtalgan. Umuman, Xolida oilada, maktabda va tabiat qo‘ynidagi faoliyat jarayonida ko‘rsatilib, inson shaxsi shakllanishida bu uch omilning ta’siri badiiy tarzda gavdalantiriladi. Darslik qizlar maktabida o‘qishga mo‘ljallanganligi bois, dastlabki uch lavhasida qizlarning jamiyatdagi o‘rnini ifodalovchi umumlashtiruvchi saboq beriladi: “Qiz bola ota-onaning eng sevuqli bir mevasidur. Qiz bola otaonaning qayg‘ulik chog‘larinda eng mehribon bir sirdoshidir. Qiz bola qavmu qarindoshlarining obro‘yi va nomuslaridir. Qiz bola uyning ziynati va xonadonning davlatidir. Qiz bola yurtning bog‘i va butun el-u ulusning chirog‘idir...” P.Shermuhamedov bu darslik haqida: “S.Ayniyning bu lavhalarini badiiy asar deyish mumkin emas, chunki bu yerda bolalar xarakteri hayotiy to‘qnashuvlar, ruhiy holatlar orqali ochilmaydi, faqat maqola uslubida avtorning qarashlari bayon qilinadi, xolos”, – deb ta’kidlaydi. Sadriddin Ayniy “Yosh buxoroliklar” partiyasining a’zosi sifatida uning ilk tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan. Dastlab “Bolalar tarbiyasi” maxfiy jamiyat shaklida tuzilgan– “Yosh Buxoroliklar” Buxoro amirligida jadidlar firqasining Ayniy bilan birga Mukammil Buxhonov, Otaulla Xo‘jayevlar dastlabki tashkilotchilari bo‘lgan. Keyinchalik Fayzulla Xo‘jayev, Mirzo Muhiddin Mansurovlar partiyada katta ahamiyat kasb etgan. S.Ayniy Buxoro jadidchilik harakatida faol ishtirok etib, “Maxfiy jamiyat” nomli uyushma tashkil etadi. Bu uyushmaga uning ukasi Sirojiddin ham a’zo edi. U zamonasining ilg‘or fikrli kishisi bo‘lib, Buxoroni rivojlangan va obod davlat bo‘lishini istaydi. Ayniy Buxorodagi mirg‘azablar ko‘ziga ko‘rinmaslik uchun 1915-yilning sentabridan 1916-yil aprel oyining oxirlarigacha Qiziltepadagi paxta tozalash zavodida ishladi. Shu orada Ayniy tinch yashashini ta’kidlaydi. Undan so‘ng Qarshiga borib dehqonlar va kosiblarning turmushini o‘rgandi. Shu yerda yurgan paytida “Tezda Buxoroga qayting, sizni “Xiyobon” madrasasiga mudarris etib tayinlashdi” degan xabarni oldi. Mudarris bo‘lishni hech kimdan talab qilmagan Ayniy bundan ajablandi. Shunga qaramay Buxoroga kelib, mudarrislik yorlig‘ini 9 oldi. 1917- yil 8-aprelda Buxoroda jadidlarning namoyishi bo‘ldi. Bu namoyishda S.Ayniyni ham ro‘yxatga olishdi. Uni do‘stlari ogohlantirib, tezroq Buxorodan qochishini, ro‘yxatning boshida uning nomi

turganini yetkazishdi. Lekin Ayniy buni qabul qilmadi, “nima bo’lsa peshonamdan” deb o’z hujrasidan chiqmadi.

Mirshablar 1917-yil 19-aprelda Sadriddinni ushlab olib, obxonaga (qamoqxona) tashlab, 75 darra urishdi. Bu haqida adib shunday deb yozadi: “Meni obxonadan Ark yo’liga olib chiqishdi. Mirg’azablar “bir-ikki” deb ikki tomondan savalay boshladilar. Ular temirchilar navbatma-navbat temirga bolta urgandek, biri kaltagini ko’targanda, ikkinchisi kaltagi bilan urar edi. Shu zayl bo’ynimdan tortib belimning pastiga qadar kaltak bilan savalashar edi. Badanimdan qon sachrar, uzilgan go’sht va teri parchalari turli tomonga otilar edi. Bir mahal mirg’azablardan birining “etmish besh” degan ovozi eshitildi. Zindonbonlar ko’tarib olib borishdi. Yana meni obxonaga tashlashdi”. Ko’kaldosh madrasasidagi so’ngi hujraning derazasi, u yerda S.Ayniy asirga olingan va amir qamoqxonasiga tashlangan

Obxonadan uni soldatlar qutqarib olib, kasalxonaga yuborishadi. (Amir O’shanda Kogonda 14 turgan rus revolyutsionerlari bilan jang boshlanib qolishidan qo’rqib, mahbuslarni ozod qilishga va’da bergan edi), Kogon shifoxonasida ikki hafta davolangach, Samarqandga keladi. Samarqandda dastlab yor-birodar, tanishbilishlarnikida yashab yuradi

SAMARQANDDA YASHAB IJOD QILGAN KEZLARI

Amir ayg’oqchilari Samarqandda ham izg’ib yurib, uni ushlab berish payida bo’lishadi. Ayniy 1918-yil 22-aprelida Toshkentga ketib, olti oy Toshkentda yashaydi. Sadriddinni topolmagan amir sarbozlari uning ukasi Sirojiddinni Shofirkonning Mahallai Bolo qishlog’idan tutib olib kelishadi. Begunoh Sirojiddinni ark devorining orqasida arqon bozoridagi balchiq kushxonada qatl etishadi. Bu ham yetmagandek 1922-yilning bahorida akasi Suktari masjidining imomi Muhiddinxo’jani gujum daraxtiga bog’lab, o’ldirib ketishadi. Bu mudhish voqealar yosh shoirning qalbini tilka-pora qiladi (Yozuvchi akasining o’limi voqealarini “Qullar” asarida badiiy tasvirlagan). Ularning xotirasiga marsiya bag’ishlaydi: Jigaram ob shudu rext zi du chashmi taram, Jigaram, vo jigaram, vo jigaram, vo jigaram Shundan so’ng, u Samarqandda yashab, shu yerdan uylanib, Samarqandda qolib ketadi. 1923-yil u yerdan bir bovli-joy sotib olib, oilasi bilan o’sha hovliga ko’chib o’tadi. (Hozir bu hovli Ayniyning uy-muzeyiga aylantirilgan) Ayniyning rafiqasi Salohat opa ham o’qimishli, ziyoli ayol bo’lib,

yangilik tarafdorlaridan edi. U adibning har qanday kunida yelkadosh va ko'makdosh bo'ldi. Adibning eng sara asarlari Samarqandda yaratildi. 1918-yil tojik tilida "Marshi Hurriyat" she'rini yozdi: Ey sitamdidagon, ey asiron! Vaqti ozodii mo rasid. Mujdagoni dixed, ey faqiron! Dar jahon subhi shodi damid.

ADIBNING SHE'RIY VA NASRIY ASARLARI

Ayniy 1920-yilda yaratgan ilk nasriy asari "Buxoro jallodlari" qissasida amir-amaldorlarning dahshatli jabr - zulmini, gunohsiz kishilarni o'rta asr qiynoqlari bilan qatl etishlarini bayon etadi. Bu asarni Buxoro Sovet Xalq 13 Respublikasi Davlat nashriyotiga topshiradi. Ammo ular bu asarni nashr etishmay «asar yo'qoldi» deb javob berishadi. Shundan so'ng Ayniy bu asarni qayta tiklab, Toshkentda 1922-yil "Inqilob" jurnalida nashr etadi. 1921-yil "Buxoro inqilobi tarixi materiallari" asarini yozib, Buxoro Davlat nashriyotiga topshiradi. Bu asar ham nashr etilmagach, uni 1926 -yil Moskvada SSSR xalqlari nashriyoti tomonidan nashr qildiradi. Buxoroda Ayniyga to'g'anoq bo'lsalar-da, uning asarlari boshqa nashriyotlardan bosilaveradi. Ayniy "Maktab marshi" nomli sodda, quvnoq qo'shiq yozadi. Unda o'ynoqi ritm va klassik poeziyada "musoviyattarafayn" san'ati dan foydalanilgan:

Yuring, o'rtoqlar bilim yurtiga,

Bilim yurtiga yuring, o'rtoqlar.

G'animat chog'lar qo'ldan ketmasin,

Qo'ldan ketmasin g'animat chog'lar.

1923-yilda "Inqilob uchqunlari" nomli she'riy to'plamini chiqaradi. Unga shoirning. Ayniy tahallusi bilan yaratgan eng sara she'rlari kiritiladi. Ayniy she'riyati umuman o'zgacha muhitdir. Unda darddan qaynab turgan buloq suvlaridan bahramand bo'lish mumkin. Ayniyning o'zi aytganidek, "Haqiqiy she'r o'quvchi va eshituvchiga chuqur hayajon bag'ishlamog'i shart. Bunga erishmoq uchun esa shoir samimiyatiga asoslanishi va o'z shaxsiyatini o'sh "aytgani"da zuhurlantira bilishi kerak". 1924-yil yaratgan «Bir kambag'al tojik sarguzashti» deb nomlangan qissasi, keyinchalik «Odina» (1927) nomi bilan e'lon qilinadi. Bu asar 1927- yil Tojikiston Davlat nashriyoti tomonidan bosib chiqariladi. Asar o'sha paytda rus, ukrain va boshqa xalqlar tilida ham tarjima etilgan. "Odina" qissasining

soʻz boshisida oʻtkir siyosatchi, davlat arbobi boʻlgan F. Xoʻjaev shunday degan edi: «S. Ayniy oʻz navbatida mutlaqo huquqsiz boʻlgan va shafqatsiz ezilgan oʻn minglab mehnatkashlarning hayotini haqqoniy ravishda hech qanday boʻyoqsiz tasvirlab bergan buyuk yozuvchidir»

Haqiqatdan ham, Ayniyning barcha asarlarida mehnatkash xalq timsoli haqqoniy tasvirlab berilgan. Ayniy oʻzi koʻrgan va guvohi boʻlgan voqealar asosida badiiy mushohadalar yuritib, haqiqiy hayotiy timsollar yaratgan. Ayniy barcha voqearini koʻrgan-bilganlari asosida yaratgan. “Ayniyning uslubi sodda, lekin jonli, favqulodda samimiy va bezaksizdir. U hech bir asarida oʻzi koʻrmagan, bilmagan yoki mohiyatiga yetmagan narsani kitobxonga koʻrsatib, uni ishontirishga urinmagan. Uning uchun badiiy talqin boshdan-oxir tabiiy, haqqoniy – har qanaqa adabiy yasamalikdan yiroq talqin hisoblangan. Asardan-asarga unda haqiqat hissi oʻtkirlashib, donishmandlik zakovati teranlashgan. Bizda oʻtgan asrning oʻttizinchi-yillaridan eʼtiboran Sharq mumtoz adabiyotini oʻqib-oʻrganmasdan, bilmasdan ham badiiy ijod bilan mashgʻul boʻlish mumkin, degan bir qanoat paydo boʻlgan, vaqt oʻtgan sayin esa u umumiy koʻnikmaga aylanib qolgan. Ayniyning tajribalari bunday koʻnikma adabiyot rivoji uchun mutlaqo zararli va Rumi, Saʼdiy, Hofiz, Navoiy, Bobur, Bedil kabi daho sanʼatkorlarning asarlaridan saboq olmay turib uzoqqa borish mumkin emasligini bilish va tan olish jihatidan ham ahamiyatli,”-deya Ayniy ijodiga Ibrohim Haqqul taʼrif beradi. Ayniy ikki tilda ijod etgan zullisonayn yozuvchidir. U oʻzbek tili bilan birga tojik tilida ham samarali ijod etgan.



Adib 1927-1928-yillarda birinchi roman «Doxunda» ni yaratadi. Bu asar oʻzbek va tojik tilida qayta nashr etilgan va boshqa xalqlar tillariga ham tarjima qilingan. Bu asarda Yodgor ismli yetim yigitning boshidan kechirgan ogʻir kunlari, zamona zaylidan paymol boʻlgan orzu-umidlari tasvirlanadi. Adib 1935-yil adabiyotning

oltin fondiga kirgan yirik asan “Qullar” romanini o‘zbek tilida yaratdi. Tarixning bir asrlik davrini qamrab olgan bu roman o‘zbek xalqi tarixini, uning hayoti va kurashi Nekqadam timsoli orqali realistlik aks ettirgan. Sadridin Ayniy 1921-yil “Bir xiylagar shayxning qilmishi” degan maqolani e’lon qiladi. Bu maqolani “Sudxo‘rning o‘limi” asarining debochasi desak xato bo‘lmaydi. 1939-yilda yaratilgan “Sudxo‘rning o‘limi” asaridagi bosh qahramon Qori Ishkamba jahon adabiyotida yaratilgan Balzakning “Gobsek” kabi timsollar bilan bir qatorda turadi. Fransuz adabiyoti namoyandasi Lui Aragon bu qissani tarjima qilib Fransiyada nashr ettiradi. Kitob so‘z boshisida u shunday fikrlarni aytgan: “S. Ayniy o‘zining bu o‘lmas asari bilan jahon adabiyotining buyuk namoyandalari Balzak, Sheksper, Gyotelar qatorida turadi”. Ayniyni ijod mahsuli Turkiston o‘lkasida chop etilgan «Oyna», «Buxoroi sharif», “Turon”, “Sadoi Turkiston”, “Mushtum”, “Mashrab” nomli gazeta va jurnallarda muntazam bosilib turgan. U yaratgan “Bilganim yo‘q”, “Kengash», “Mashrab bobo”, “Puling halol bo‘lsa, to‘y qil” kabi hajviy va satirik asarlari ana shu gazetalarda berib borilgan.

Adib bosib o‘tgan hayot yo‘lini xotirlab, avlodlarga o‘zidan keyin yorqin xotiralar qoldirish uchun 1948-yilda «Esdaliklar» asarini yozishga kirishdi. Bu asar yozuvchining bolaligidan to taniqli yozuvchi bo‘lgan davrlarigacha ixcham va mazmunli hikoyalar asosida yozilgan. Hikoyalarni kitobxon hayajon va iztirob bilan o‘qiydi. Ayniyqsa, uning Suktari qishlog‘idagi ilmga chanqoq bolaligi, otadan ayrilib boshiga tushgan og‘ir kunlar, nochor va qashshoqlik 18 bilan madrasa hujralarida o‘tkazgan talabalik davri kishini iztirobga soladi va bugungi hayotimizga shukrona aytib fikrlashga undaydi. Yozuvchi ba’zi hikoyalarni haqqoniy real voqealar asosida yozadi. 1950-yilda adib bu asari uchun Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Uning asarlari rus, ukrain, ingliz, fransuz, nemis, rumin, hind, venger, xitoy, chek, polyak kabi qirqaqa yaqin tillarga tarjima qilingan. I.S.Braginskiy bu asarni “Ayniy o‘limi oldidan qoldirgan shoh asaridir”, - deb ta’rif beradi. Bu asar o‘sha davr uchun tanqidning eng ajoyib ko‘rinishi tasvirlangan asar desak xato bo‘lmaydi. Asar o‘quvchiga bir kishining butun boshli hayoti boricha o‘quvchi ko‘z oldiga qo‘yib qo‘yadi. Ayniy 1904-yilda yozgan “Bazm” she’rida o‘sha davrda xalq orasidan nom chiqargan hofizlardan Qori Kamol, Qori Najm, Halimi Safed (Domla Halim Ibodov), Levicha (Levi Boboxonov), tanburchi Atojon, dutorchi Tohirjon, doiradars Karim va boshqalarning nomlarini hurmat bilan tilga oladi. Bu she’r haqida alohida O.Safarovning. Ustod Ayniyni “Bazm” she’ri tahlili nomli ishi mavjud. Sevimli yozuvchimiz S.Ayniy yaratgan «Doxunda» (1928), «Qullar» (1935) romani, «Sudxo‘rning o‘limi» (1939). «Esdaliklar» (1949-1954), «Eski maktab» (1935), “Yetim”, “Qiz bola yoki Xolida” kabi qissalari, «Yodgorlik», «Guli surx», «Inqilob uchqunlari” kabi she’riy to‘plamlari, “Insonning suv bilan jangi” dostoni, “Temur Malik”, “Muganna

qo‘zg‘oloni”, “Yetti boshli 23 dev”, “Marshi intiqom” kabi o‘lmas asarlari adabiyot xazinasining nodir durdonalaridir.

Tafakkur dunyosi keng izlanuvchan, salohiyatli yozuvchi Ayniy tinim bilmay ijod etdi. «Har kimki, bekordir, bu dunyoda u xordir» degan yozuvchi bir nafas ham umrini bekor kazmadi. S. Ayniy o‘zbek va tojik adabiyoti tarixi yuzasidan katta ilmiy tan ishlarini olib bordi. Uning Rudakiy, Sa’diy Sheroziy, Ibn Sino, Mirzo Bedil, Navoiy. Kamol Xo‘jandiy, Abdurahmon Jomiy Ahmad Danish kabi buyuk siymolar haqida yozgan ilmiy asarlari nihoyatda qimmatlidir. Olim sharqshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida “Firdavsiy va uning Shohnoma”, “Shayx ur-raisa Abu Ali ibn Sino”, “Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy”, “Kamol Xo‘jandiy”, “Ustod Rudakiy”, “Alisher Navoiy”, “Vosify va uning asari” nashr ettirdi. Ayniy bedilshunos olim sifatida ham tan olingan. Xususan, “Sho‘ro” jurnalida 1912-yil Buxoroda madrasada birga o‘qigan Idrisiy tarjimasi ostida Ayniyning Bedil hayoti haqidagi maqolasi bosilib chiqadi. Shuningdek, 1946-1947-yillarda “Sharxi surx” jurnalida Bedilga bag‘ishlangan maqolalarini e‘lon qiladi. Keyinchalik “Mirzo Abdulqodir Bedil” nomli muhim monografiya yaraladi. Y.E.Bertels kitobga yozgan muqaddimasida, “Kamdankam odam bu ishning uddasidan chiqa olardi, shunda ham S.Ayniyga o‘xshagan 20 o‘z xalqining o‘tmishdagi adabiyotini, tilini va shu tilda yozilgan barcha adabiyotini yaxshi bilgan zabardast ustozgina bu ishni muvaffaqiyat bilan nihoyasiga yetkazgan bo‘lur edi”, Sadriddin Ayniyning Alisher Navoiy haqida yozgan birinchi tadqiqot asari 1938-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500- yilligiga bag‘ishlab yozilgan “Mir Alisher Navoiy” maqolasidir. 1948-yil Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida yozilgan monografiya asosida Lelingirad universitetining Ilmiy Kengashi Sadriddin Ayniyga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini bergan. 1941-yil A. Navoiyning 500-yillik yubiles munosabati bilan «Xamsa» asari ustida juda katta ilmiy tadqiqot olib bordi. “Xamsa” asarini 4 oy davomida lotin alifbosida tayyorlaydi. Ustoz tojik adabiyoti xazinasini tiklashga butun kuch-g‘ayratini sarfladi. Uning «Tojik adabiyoti namunalari» (1925) deb nomlangan ilmiy asari unutilib ketayotgan fors va tojik shoirlari haqida batafsil ma‘lumotlar berdi. X asrdan to XX asrgacha bo‘lgan 200 dan ortiq tojik adabiyoti namoyondalari hayoti va ularning ijodlaridan namunalar berib talqin etdi. O‘zi ham tojik tilida asarlar yozib, ularni millat sifatida targ‘ib qilib, bu bahsga yakun yasadi. Ayniqsa, “Firdavsiy va uning “Shohnoma”si, “Ustod Rudakiy”, «Zayniyddin Vosifiy», «Kamol Xo‘jandiy», «Mirzo Bedil” “Shayx Sa’diy” kabi ilmiy izlanishlarida fors va tojik shoirlarining ijodini mukammal ochib berdi. “Tojik adabiyoti namunasi”da Akmal Xo‘jandiy, Gulshaniy, Nodira, Mashrab va boshqalarning hayoti va ijodiga oid muhim ilmiy-tarixiy ma‘lumotlarni tilga oldi. Xususan, Ayniyning o‘zbek adabiyotining ulug‘ adibi, XVII asrning atoqli shoirlaridan biri Boborahim Mashrab haqidagi

yozganlari qiziq: “Uning ismi Boborahim. Ulamolar fatvosi va Mahmudbiy Qatag‘on hukmi bilan hijriy 1123-yilda Qunduzda shahid bo‘ldi. U Subhonqulixon va Muqimxonning hurmatli umarlaridandir. Sa‘diy Sheroziyga bag‘ishlangan risolasida u yozadi: “Eski Sharq tanqidchilari Sa‘diyning “vuqu‘go‘y” deyдилar. Agar bu so‘zni xalqaro termin bilan ifoda qiladigan bo‘lsak, “realist” bo‘ladi. Sadridin Ayniyning “Qullar”, “Odina”, “Buxoro jallodlari” nomli qissa va raomanlari muayyan tarixiy voqealar asosida yozilgan bo‘lib, aksariyat hodisalar aynan tarixiy faktlar sanaladi. Dastlab u 1920-yilgacha amirlik taxtida hukmronlik qilib kelgan mang‘itlar sulolasi tarixini yozadi. Asarning dastlabki varianti Samarqandda chiqq boshlagan «Shula‘yi inqilob» haftalik jurnalining 1920-yil sentyabr, noyabr sonlarida bosiladi. Bu haqda o‘z tarjimai holida Ayniy shunday yozadi: «Sho‘layi inqilob» jurnalida «Buxoro mang‘it amirlari tarixi» sarlavhali bir 21 tarixiy ocherk boshladim. Bu maqolalar silsilasi Buxoro inqilobigacha davom etdi. Ocherkda so‘nggi amir va uning saroyi ahligina emas, balki Buxoroda qariyb 150 yil hukmronlik qilgan barcha mang‘it amirlarining nobakorona xatti-harakatlarini ularning idora tartiblari bilan birga fosh qildim. Bu maqolalar 1923-yili alohida kitob shaklida Toshkentda chop bo‘ldi». S.Ayniy Buxoroning o‘tmish tarixi haqida “Mang‘itlar sulolasi tarixi” (1922), “Buxoro inqilobi tarixi materiallari” (1926), “Muqanna qo‘zg‘oloni” kabi ilmiy va tarixiy asarlar ham yaratgan. S.Ayniy adabiyot va tarixga doir ilmiy asarlari bilan fan olamiga munosib hissa qo‘shdi. 27 Sadridin Ayniy shu taxlitda amir Haydar (1800— 1826), amir Nasrullo (1826— 1860), amir Muzaffar (1860— 1885), amir Abdulahad (1885—1910) va amir Olimxon (1910—1920) davri muhim voqea va hodisalarini sharhlaydi. Ulug‘ Vatan urushi boshlanishi bilan Sadridin Ayniy xalqimizning qahramonona o‘gmishiga murojaat qilib, jangchilarni matonat va g‘alabaga undovchi tarixiy asarlar yozdi. 1944-yili tojik tilida chop etilgan «Muqanna isyoni», «Tojik xalqi qaxramoni Temur Malik» nomli yirik tarixiy ocherklari shular jumlasidandir. Adibning birinchi tarixiy ocherkida VIII asrda Muqanna boshchiligidagi O‘rta Osiyo xalqlarining arablarga qarshi qo‘zg‘oloni tadqiq etilsa, ikkinchisida XIII asrda mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashdagi Temur Malik qahramonliklari haqida hikoya qilinadi. Temur Malikning mo‘g‘ullarga qarshi xalqqa qarata aytgan chaqiriqlari fashizmga qarshi kurashayotgan qahramon jangchilarimizga da‘vatdek jarangladi. Zamondoshlarimizga ulkan ma‘naviy oziq berib kelayotgan mazkur asarlar, afsuski, hanuz o‘zbek tilida nashr etilmagan. Ayniy yana Xo‘jand ning o‘tmish tarixidan bahs etuvchi «Tirozi jahon» («Jahon ziynati») asarini yozdi. Bu yirik tadqiqot dastlab 1936-yili yozilib, 1939-yili nashr etiladi. Zukko va zabardast olim ana shu beqiyos xizmatlari uchun 1948-yilda filologiya fanlari doktori, 1950-yilda Samarqand davlat dorulfununining professori ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. Adib 1943-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a‘zosi, 1951-yilda

Tojikiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi qilib saylangan. Adib umrining oxirida davolanish uchun Tojikistonga borib yashadi va 15-iyunda 76 yoshida vafot etdi. Donishmand olim, sevimli yozuvchi, yirik jamoat arbobi Sadriddin Ayniy Dushanbe shahridagi Ayniy bog'ida dafn etildi. Sadriddin Ayniy barcha asarlarini Samarqand va Buxoroda yaratgan edi. Adibdan "Nega Tojikistonga borganingizda ijod qilmaysiz? - deb so'raganda Men Samarqandda ijod stolimda o'tirib, qalamimni siyohdonimga botirishim bilan o'z-o'zidan ilhom 22 keladi va ijod qilaman», - degan ekan. Butun hayoti xalq xizmatida bo'lgan, umrini ijodga bag'ishlagan adib o'zbek va tojik xalqlarining vodida mangu yashaydi. Sharof Rashidov Sadriddin Ayniy haqida faxrlanib shunday degan edi: "Yirik olim va zabardast yozuvchi Sadriddin Ayniyning o'zbek va tojik tillarida katta mahorat bilan ijod etilgan umrboqiy asarlari xalqlar do'stligi va birodarligining yorqin timsolidir. Uning o'lmas asarlari butun insoniyat uchun babbarobar qimmatlidir". 1962-yil Qohirada bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika yozuvchilari Xalqaro forumida Sadriddin Ayniyning ulug'vorligi mo'tabar minbardan yana bir marta qayd etilib, buyuk mutafakkirlar-Rabindranat Tagor, Lu Sin, Taxa Xuseyn kabilar bilan bir qatorda yonma-yon qo'yilib, uni «XX asr Sharqining buyuk Tagori» deb atashdi. Adib 1943-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi, 1951-yilda Tojikiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi qilib saylangan. 1954-yilda Tojikiston Fanlar Akademiyasining Prezidenti vazifasida xizmat qildi. Akademik Ibrohim Mo'minov, buyuk davlat arbobi, iqtidorli yozuvchi Sharof Rashidov, O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim, shoir Hamid Olimjon kabilar Sadriddin Ayniy ustoz deb bilganlar. S.Ayniyning xotirasi abadiylashtirilib, Samarqand pedagogika instituti, Buxoro musiqali drama teatri, G'ijduvon tumanidagi yirik jamoa xo'jaliklaridan biri, Buxoro shahridagi markaziy kutubxona, maktablar, ko'cha va mahallalar adib nomi bilan ataldi. 1964-1965--yillar Sadriddin Ayniyning 8 tomli asarlar to'plami "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyotida chiqarildi. Samarqandda adib yashagan hovli kattagina uy-muzeyiga aylantirildi. 1968- yilda Moskvada Ayniy surati bosilgan pochta markasi chiqarildi.

Marka rasmi



Qozon va Qirg'izistonning shahar ko'chalariga Ayniy nomi berildi. Rossiyaning katta ensiklopediyasiga ham S.Ayniy haqida ma'lumotlar kiritildi. Tojikiston viloyatining bir tumaniga, Dushanbe shahridagi mahalla va ko'chalarga Ayniy nomi berildi. Dushanbe shahridagi opera va balet katta teatri, Dushanbe Davlat pedagogika universiteti S.Ayniy nomi bilan ataldi. Tojikiston yozuvchilari va ijodkorlari uchun S.Ayniy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Dushanbe shahridagi eng chiroyli va ko'rkam bog' Ayniy nomi bilan ataladi. Bu bog'da adibning katta haykali o'rnatildi. Bundan tashqari 1999-yilda chiqarilgan Tojikistonning 5 somonida (5 so'mlik pul) Ayniy surati bosilgan.

Pul rasmi



Tojikistonning «Somon Air» aviakompaniyasi «Boeing - 737» samolyotini Ayniy nomi bilan atadi. S.Ayniy umrining so'nggi kunlarida Tojikistonda yashab, o'sha yerda vafot etgan, uning jasadi o'sha yerda dafn etilgan bo'lsa ham adib qalbi hamisha ona vatani Buxoroga talpinib turdi. Ota-bobolari xoki bo'lgan Suktari qishlog'i yuragining bir parchasi edi. Sadriddin Ayniyning akasi Muhiddin Xo'janing avlodlari hozirgi kunda Suktari qishlog'ida istiqomat qilishadi. Ular Matlab, Zuhridin, Fayyoz, Vahob Muslihiddinovlar, Orif aka Muhsinov, Yusufjon Akobirov, Mahbuba Muhsinova, Muhiddin Muxsinovlar Sadriddin Ayniyning avlodlaridir. Ustoz Ayniy mehr-oqibatli, qarindoshparvar inson edi. Uzoqda bo'lsa ham-yilda bir marta tug'ilib o'sgan yurti Buxoroga, Suktari qishlog'iga kelib, qarindoshlarini yo'qlab ketar edi. Kamtarin va bilimdon ustoz Ayniy ruhi hamisha barhayotdir, u kelajak avlodlar qalbida mangu yashaydi. Zero adib o'zbek va tojik tillarida yozgan bebaho asarlari bilan ikki qardosh-jondosh xalq adabiyoti va madaniyatini yuksaltirib, adabiyot gulshanida o'z bog'ini yarata olgan buyuk insondir. M.Shukurov shunday yozadi: "Haqiqatan ham Sadriddin Ayniy tanglik davrida fidokorona mehnat qilgan, millatning bardavomligini

ta'minlash, xalqimiz ravnaqi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk millat farzandlaridan biridir, xalqning tarix vayronalari orasidan qayta tiklanishiga yordam bergan, g'amxo'rlik qilgan va homiylik qilgan". 1954-yilda Tojikiston Fanlar Akademiyasining Prezidenti vazifasida xizmat qilgan. Zullisonayn adib 1926-yildan 1933-yilgacha Samarqanddagi Tojikiston nashriyoti bo'limida adabiy muharrir bo'lib ishlagan. 1943-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi bo'lgan. 1940-yil S.Ayniy "Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoniga sazovor bo'ldi. 1947-yilda Tojikiston SSR Oliy Soveti ikkinchi chaqiriq saylovida Oliy Sovet deputati etib saylagan. 1948-yilda filologiya fanlari doktori, 1950-yilda professor unvonlari berilgan. 1998-yilda esa Tojikiston Qahramoni unvoni sohibi bo'lgan. O'zbek adabiyoti va ilm-fani rivojiga qo'shgan xizmatlari uchun 2001-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Farmoni bilan Sadridin Ayniy "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan. 1978-yil ustoz Ayniy tavalludining 100-yilligi YUNESKO qarori bilan keng nishonlangan.



O'rta Osiyoning o'tmishi, madaniyati, o'zbek va tojik xalqlari adabiyotining tarixi, bu qardosh xalqlarning klassik shoirlari, tazkiranavislari, adiblari va ma'rifatparvar olimlari to'g'risida tadqiqot ishi olib borgan va olib borayotgan har bir ilm ixlosmandi sharqshunos va adabiyotshunos olim, Buxoro tarixining mohir bilimdoni Sadridin Ayniyning (1878-1954) "*Namunai adabiyoti tojik*" ("Tojik adabiyotidan namunalar") asariga murojaat etadi. Uning yirik ilmiy-adabiy tadqiqoti "Tojik adabiyotidan namunalar" asari uch qismdan iborat bo'lib, 1926 yilda Moskvada arab imlosida tojik tilida nashr etilgan [1]. Asar ikkinchi marta 2007 yilda fors tilida

Eronda [2] va uchinchi bor 2010 yilda Dushanbeda kirill yozuvida tojik tilida, Ayniy "*Kulliyot*" (Asarlar to'plami)ning 16 jildi sifatida chop etildi [3].

Bu antologiyada X asrdan boshlab to 1925 yilgacha O'rta Osiyoda yashab ijod etgan 228ta shoir, yozuvchi, olim, tazkiranavis allomaning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Jami 228ta shoirni qamrab oluvchi bu tazkirada yuzdan ortiq "Buxoriy" taxallusi bilan ijod qilgan buxorolik ijodkorlar o'rin olgan. Shuni ham aytish joizki, adabiyotshunos olim o'z asariga 50dan ortiq o'zbek olimi, shoiri, tarixchisi va tazkiranavisini ham kiritgan. Ayniyniing shaxsi va faoliyatiga xos muhim fazilatlaridan biri, bu uning ikki tilda, ya'ni o'zbek va tojik tilida barakali ijod etganidir.

"*Tojik adabiyotidan namunalar*" asaridagi biografik ma'lumotlar ixcham va xarakterlidir. Ayniy shoirlar to'g'risida berilgan ma'lumotlarda u adibning ijod bobidagi iqtidoriga, shaxsiyatiga, axloq-odobiga alohida e'tibor beradi. Adabiyotshunos olim Buxoroda yashab ijod etgan, o'z nomini abadiyatga muhrlagan, zamonasining o'qimishli, ziyoli kishilari to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlarni berib o'tgan. Adibning asarlari, uning sharqshunoslik, tarix va adabiyotshunoslik masalalariga doir "*Tojik adabiyotidan namunalar*" asari boy faktik materiallarni chuqur ilmiy tahlil etishga qaratilgan. Tadqiqotchi qaysi ijodkor haqida ilmiy tekshirish ishiga kirishmasin, birinchi navbatda bu ijodkor yashagan davrning tarixiga to'xtaladi. U ijodkorning shaxsi bilan aloqador barcha tarixiy, adabiy manbalar, xalq og'zaki ijodidagi afsona va rivoyatlarni ham sinchiklab o'rganadi. U ijodkorning asarlarida uchraydigan ayrim avtobiografik va tarixiy ma'lumotlarga diqqatni jalb etib, ularni ham tadqiqot doirasiga tortadi. Bunday keng va batafsil tadqiq usuli har bir ilmiy xulosaning mantiqiy asosini ta'minlaydi.

Sharqshunos olim Ayniy bu tazkirasiga tartib berishda o'zbek, fors-tojik adabiyoti tarixida X-XIX asrlarda tuzilgan Xoja Hasan Nisoriyning "*Muzakkir ul-ahbob*", Mutribiy Buxoriyning "*Tazkirat ush-shuaro*", Qori Rahmatullo Vozehning "*Tuhfatul ahbob*", Muhammad as-Saolibiyning "*Yatimat ad-dahr*", Muhammad Avfiy Buxoriyning "*Lubob ul-albob*", Alisher Navoiyning "*Majolis un-nafois*", Davlatshoh Samarqandiyning "*Tazkirat ush-shuaro*", Fazliy Namangoniyning "*Majmuai shoiron*", Afzal Maxdum Pirmastiy Buxoriyning "*Afzal-ut-tazkor fikri zikr-ush-shuaro v-al-ash'or*", Sharifjon Maxdum Sadr Ziyoning "*Tazkirat-ush-shuaro mutaqaddimin*" tazkirasidan va boshqa yuzlab devonlar va tarixiy nodir kitoblardan ham foydalangan. Olim ularni sinchiklab o'rgangan va tarixiy asarlarning yaxshi jihatlari ijodiy rivojlantirgan. "*Namunai adabiyoti tojik*" nomli yaxlit barkamol bir asar ana shu ilmiy aziyat va mashaqqat zahirida tug'ilgan.

Shubhasiz, antologiyaga kiritilgan 228ta shoir, yozuvchi va tarixchi-tazkiranavis haqida qisqacha, lekin mazmunli ma'lumot berish Ayniydan yuksak iste'dod va ulkan ijodiy mehnat talab qilgan. Bu mehnat eng avvalo turli davrda yozilgan, yirtilib ketgan, o'chgan va xira tortgan qo'lyozmalarni, tarixni, adabiyot tazkiralari, turli to'plamlarni, xalq orasidagi har xil afsonalarni, rivoyatlarni,

madaniy va tarixiy yodgorliklarni sinchiklab o'rganish, shu o'rganilgan tarixiy faktlarni tanqidiy tadqiq qilib, obyektiv baholash, shundan so'nggina undan foydalanishdek murakkabliklar bilan izohlanadi.

"Tojik adabiyotidan namunalar" asarining birinchi qismida Abdulloh Ja'far Rudakiydan boshlab, Fitrat Zo'rdo'zi Samarqandiy, Sayido Nafasiylargacha bo'lgan davrdagi adiblar qamrab olinadi. Bu qismda tilga olingan Buxoriylar: Abulhasan Rudakiy Buxoriy, Shayx Abulabbos Fazl ibni Abbos Buxoriy, Mansur Ahmad Daqiqiy Buxoriy, Mirzo Abulhasan Og'och Buxoriy, Ma'navi Buxoriy, Am'aqi Buxoriy, Kamoli Buxoriy, Hamid Buxoriy, Shamsuddin Kardari Buxoriy, Shayx Sayfuddin Boxarzi Buxoriy, Javhari Zargari Buxoriy, Nosir Buxoriy, Xoja Ismat Buxoriy, Burunduqi Buxoriy, Shamsuddin Ahmad Ohangari Buxoriy, Shahobuddin Ahmadi Buxoriy, Tohiri Buxoriy, Sayfi Buxoriy, Xayoli Buxoriy, Mushfiqi Marvi Buxoriy, Boqiy Darzi Buxoriy, Xoja Hasan Nisori Buxoriy, Marhumi Buxoriy, Mutribi Buxoriy, Arshii Buxoriy, Gulshani Buxoriy, Mavlai Sharifi Buxoriy, Qozi Lutfulloh Shokiri Buxoriy, Muhammadis'hoq Shavkat Buxoriy, Imloi Buxoriydir.

Bu bobda jami 75 shoir va 5 shoiraning ijodiy faoliyatiga tegishli ma'lumotlar va ijodidan namunalar berilgan. Tilga olingan 80 shoir va shoiradan, bevosita Buxoroda kamol topgani 30dan ortiq bo'lsa, o'sha vaqtda hayot bo'lgani 20ga yaqin bo'lgan.

Antologiyaning ikkinchi qismi hajm jihatidan ancha katta. Bu qismda 132 qalam ahli, adabiyotshunos va o'z davrining yetuk olimlari, ayrim tarixnavislar haqida ham ma'lumot beriladi. Tazkiraning bu bobida Ayniy XIII asrdan XX asrning boshigacha, ya'ni 1905 yilgacha bo'lgan davrdagi adiblarning ijodi, hayoti, ayrim tarixiy voqealar va hodisalar xususida fikr yuritadi. Antologiyaning ikkinchi qismida (jami 132 shoir) Mansurxoja Ansobi Buxoriy, Akobirxoja Akbari Buxoriy, Mirbaqoxoja Otashii Buxoriy, Afzali Buxoriy, Muhammadamin Hakimi Buxoriy, Habibulloh Avhadi Buxoriy, Otajon Payravi Buxoriy, Naberaxoja Tavfiqi Buxoriy, Qozi Abdullohxoja Tahsini Buxoriy, Isomuddin Soqibi Buxoriy, Tursunboqiy Jaloli Buxoriy, Qozijon Jur'ati Buxoriy, Muhammadsidiq Hayrati Buxoriy, Muhammadsidiq Hashmat Buxoriy, Ahmadjon Hamdamii Buxoriy, Qoziy Rahmatii Xijlati Buxoriy, Xamo'shii Buxoriy, Mullohusayn Donishi Buxoriy, Mullorajab Donishi Buxoriy, Shamsuddin Do'ii Buxoriy, Ahmad-Maxdumi Muhandisi Donishi Buxoriy, Qori Karomat Dilkashi Buxoriy, Qori Abdulmajid Zufununi Buxoriy, Qoziy Rashid Mirinoyatullohi Buxoriy, Qoziy Abdulaziz Roqimi Buxoriy, Idrisxoja Rojii Buxoriy, Mirzorahim Zakii Buxoriy, Abdulqodirxoja Savdoi Buxoriy, Mullo Mahmud Simoi Buxoriy, Mirzosiroy Hakimi Buxoriy, Muhammadsharif Shevani Buxoriy, Sharif-Maxdum Shirini (Mu'tasimi) Buxoriy, Shirini Buxoriy, Shamsuddin-maxdum Shohini Buxoriy, Hoji Azimi Shar'ii Buxoriy, Qori Hoshim Shoiqi Buxoriy, Tohirxoja Zariri Buxoriy, Mirzo Muhammadsharif Sadri Ziyoi Buxoriy, Muhammad Ya'qub Kenjaali Buxoriy, Inoyati Buxoriy, Iso Maxdum Buxoriy, Hoji Ibrohim Osimi Buxoriy, Mullosharif Akbari Buxoriy, Sadriddin Ayniy Buxoriy, Qori Hisomuddin Foiqi Buxoriy, Qozi Qurbonxon Fitratii Buxoriy, Qozi Abduroziq Fikrati Buxoriy, Mirzoshoh Foizi Buxoriy, Abdurauf Fitratii

Buxoriy, Kamoli Buxoriy, Qozi Komili Buxoriy, Sodiqxoja Gulshani Buxoriy, Mullo Nazrullo Lutfii Buxoriy, Abduroziq Muniri Buxoriy, Qozi Mullosa'diy Mohiri Buxoriy, Hoji Jahongir Majnuni Buxoriy, Abdulmajid Muhtaribi Buxoriy, Hoji Ne'matullo Muhtarami Buxoriy, Hoji Hodiy Masruri Buxoriy, Mirzo Abdulvohid Munzimi Buxoriy, Sayid Mahmudxoja Buxoriy, Komilxoja Nikhati Buxoriy, Mirqori Noiri Buxoriy, Qozi Sayidjon Nazmii Buxoriy, Muhammadsoleh Navhai Buxoriy, Qori Rahmatullo Vozehi Buxoriy, Xalifa Ashurmuhammad Yakdili Buxoriy haqida ma'lumotlar berilgan.

Asarning uchinchi so'nggi qismida esa tojik va o'zbek shoirlarining 1905-1925 yillardagi ijodi haqida fikr yuritadi [4:345]. Ayniyning *"Tojik adabiyotidan namunalar"* asarida Ahmad-Maxdum Muhandis Donishi Buxoriy (1827-1897) haqida keltirgan fikr-mulohazalari qimmatli hisoblanadi. Adibning yozishicha, Buxorodagi dastlabki maorifparvarlik va taraqqiyparvarlik g'oyalari Ahmad Donishdan boshlangan. Ayniy Ahmad Donish bilan shaxsan uchrashib, uning suhbatidan bahramand bo'lmagan bo'lsa ham, lekin uning *"Navodir ul-vaqoe'"* ("Nodir voqealar") asari orqali tanishgani, bu asar dunyoqarashida katta burilish yasaganini aytadi. Muallif o'z asarida Ahmad Donishning *"Navodir ul-vaqoe'"* asariga katta o'rin ajratib uning asosiy mazmun-mohiyatini to'liq ochib bergan.

Ayniyning mashhur taraqqiyparvar ulamo Sharifjon Maxdum Sadr Ziyoy (1867-1932) haqida yozgan tarixiy ma'lumotlari ham muhim. Buxoroning so'nggi amiri Said Olimxon 1917 yilda islohot farmonini e'lon qilishi arafasida Sadr Ziyoni qozikalonlikka tayinlaydi. Sadr Ziyoy amir farmonidan keyin Buxorodan badarg'a qilinib, Qarshiga qozi etib jo'natiladi. 1918 yil mart oyida Kolesov voqealari munosabati sabab, Qarshida uning yaqin qarindoshlari qatl etiladi. U yetmish kunlik mahbuslikdan keyin Shahrisabzga qozilikka tayinlangan. Sharifjon Maxdum Sadr Ziyoning ulkan ma'naviy xazinasi istiqlol davri odamlarini ham barkamol shaxs qilib shakllantirish yo'lida beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Hozirgi ilm ixlosmandlariga o'zidan juda katta boy madaniy va ma'naviy meros qoldirgan Sharifjon Maxdum Sadr Ziyoning shaxsi haqida Ayniy o'z kitobida shunday yozadi: "Qozi Muhammadsharif Sadr Ziyoy domullo Abdushukur Oyatning o'g'li bo'lib, o'z zamonasining ustod-mutafakkirlaridan edi. Ma'rifatparvar otasining soyasida kasbu-kamol topdi. Buxoro inqilobidan (1920) keyin Buxoroga qaytib sho'ro hukumatining xizmatiga kirdi. She'r kam yozardi. Nazmda ko'zga ko'ringan asari uning *"Tazkirat ush-shuaro"*sidir. Lekin boshqa asarlari ham ko'p, masalan, *"Ro'znoma"*, *"Navodiri Ziyoiya"*, *"Tazkirat ul-hattotin"* va boshqalar. U *"Tazkirat ul-hattotin"* kitobida o'z davrining ma'lum va mashhur hattotlarining tarjimai holi va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar beradi. Sadri Ziyoy arab va fors tili grammatikasini, mumtoz adabiyotni, tarix fanini, xattotlik san'atini puxta egallagan edi" [5:329].

Sharifjon Maxdum Sadr Ziyoy o'sha vaqtda endi adabiyot olamiga kirib kelgan va ilk she'rlari bilan tanila boshlagan yosh Sadriddinxo'ja Ayniydagi iste'dodni payqagan

va uning Buxoro madrasalarida tahsil olishi, shu sharif shaharning ilmiy-adabiy muhitidan xabardor bo'lishiga keng yul ochib bergan. Ayniy 1891-1892 yillarda shu ma'rifatparvar adib xonadonida xizmat qiladi. Sharifjon Maxdumning jo'shqin adabiy davralari yosh Ayniy uchun "hayotbaxsh sarchashma" bo'lgan.

Shuningdek, Ayniyning mang'itlar sulolasi xonadonining vakillaridan bo'lgan, boylik, shon-shuhrat va toju taxtga qiziqmay o'zining butun umrini ilm-ma'rifatga bag'ishlagan Muhammad Siddiqxon Hashmat Buxoriyga oid fikri ham ancha qiziqarlidir. Adib u haqida qo'yidagicha yozadi: "Muhammad Siddiqxon Hashmat Buxoriy – birodari amir Abdulahadxon hukmronligi va jiyani Mir Olimxon (Amir Sayid Olimxon – F.T) davrida 35 yil (1303-1338) mahbuslikda edi. Shu davr mobaynida o'zini ilmiy ijodga va kitobdorlikka bag'ishladi. Buxoroda Hashmatning xususiy kutubxonasidek biror mashhurroq kutubxona yo'q edi. Hashmat Buxoriy forsiy, turkiy va arabiy tilda she'rlar bitar edi. Turli risolalar yozdi, tahrir etdi. Jumladan, "*Nomai Xusravon*" nomli tazkiraga ta'lif bergan edi. Hashmat, Buxoro inqilobidan keyin 1339 hijriyda 35 yillik mahbuslikdan ozod bo'lib, Buxoro Sho'rolar Jumhuriyati hukumatida kutubxonachi bo'lib xizmat qilardi. Lekin, 1341 hijriyda, (1923) o'zining ayrim avlodlari (amirzodalari) va amir xonadoni vakillari qatori Afg'onistonga jo'natildi" [6:426].

Ayniy o'zining "*Tojik adabiyotidan namunalar*" asarida Abdurauf Fitrat Buxoriy (1886-1938) to'g'risida keltirgan ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, U Fitrat Buxoriyning "*Munozara*", "*Sayyohi hindi*", "*Rahbari Najot*", "*Oila*", "*Sayha*" va "*Musulmononi Dor-ur-rohat*" kabi asarlari haqida qisqacha, lekin muhim ma'lumotlarni quyidagicha keltirib o'tadi: "*Rahbari najot*" – bu risola turli masalalardan iborat bo'lib, aqliy va naqliy dalillardan bayon topgan, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda rahnamo edi".


Ayniy Fitratning asarlariga to'xtalarkan, negadir yangi maktablar uchun yozgan "*Mavludi sharif*" va "*Muxtasar islom tarixi*" nomini keltirmaydi, buning boisi, bu asarlarning diniy ruhi sarlavhadayoq aks etgani bo'lsa kerak. "*Musulmononi Dor-ur-rohat*" asari Ismoilbek Gasprinskiyning "*Dor-ur-rohat musulmonlari*" nomli asarining forsiy tarjimai edi [8].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiyotshunos va sharqshunos olim Ayniyning ilmiy-adabiy asarida buxorolik ijodkorlar to'g'risidagi ma'lumotlar muhim ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ular o'tmishdagi Buxoro adabiyoti, tarixi va ilmu ma'rifatini o'rganishda qimmatli manba sifatida xizmat qila oladi. Eng asosiysi, adibning bu asari xalqimizning ma'naviy merosi bo'lib, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham u "Fan xalqqa boylik keltiradi", deb yozgan edi.

SADRIDDIN AYNIY UY-MUZEYLARI



Bu buyuk adib hayoti haqida uning memorial uy-muzeylaridan batafsil ma'lumot olishingiz mumkin. O'zbekiston hududida Samarqand va Buxoro viloyatida Sadriiddin Ayniy muzeyi bor. 470 dan ortiq eksponatlar bor Samarqanddagi uy-muzeyi va tug'ilib o'sgan joyidagi o'zi o'qigan eski maktabida unga tegishli xotiralar saqlanadi. 1967-yil 19-mayda ochilgan Samarqanddagi uy-muzeyida Abdulla Qodiriy, Oybek, Zulfiya, Hamid Olimjon, Yo'ldosh Oxunboboyev kabi adiblar bilan uchrashuvlar bo'lgan. "Qizil O'zbekiston" gazetasining Samarqanddagi sobiq muxbiri pensioner Salim Qarimov bir uchrashuvda shunday degan edi: «Ayniy domla bilan men yaqin edim. Uylariga ba'zan borib suhbatlashib turardim. Domla Qodiriyini ko'p tilga olar, «Julqunboy «Odina»ni ko'rib, yaxshi maslahatlar bergan edi», deb yodlar edilar...» «Odina»ni yozib





Julqunboyga topshirdim, — degan ekan Ayniy hikoya qilib Salim Qarimovga, — u, o‘qib: «Asaringiz yaxshi, domla, biroq ozgina o‘t berish kerak, o‘qishli bo‘ladi», deb maslahat berdi. Yozuvchi bu yerda 1917-yildan 1952-yilgacha yashagan. Aynan shu yerda o‘zbek adabiyotiga “Odina”, “Eski maktab”, “Qullar”, “Sudxo‘rning o‘limi” kabi jahonga mashhur asarlar yaratilgan. 26 Shuningdek, umrining oxiriga qadar yashagan Tojikiston zShuningdek, umrining oxiriga qadar yashagan Tojikiston zaminidagi Ayniyning uyi ham muzeyga aylantirilgan. Bu uy 1978-yildan e‘tiboran adibning 100-yilligi munosabati bilan muzey sifatida tashkil etilgan. Ayniy adabiyot muzeyi bir necha xonalardan iborat 27 bo‘lib, ularning har birida Sadriddin Ayniy hayoti va ijodiga oid materiallar jamlangan

Muzeyga kiraverishda Ayniy byusti o‘rnatilgan. Birinchi xonada shaxsiy buyumlar, Ayniyning bolalikdan Oktyabr inqilobi va Buxoro inqilobi (1917-1920)gacha bo‘lgan hayoti va faoliyatiga oid materiallar jamlangan. Birinchi xonaning o‘rtasida stol ustida Ayniyning sevimli kitobi “Axloqi Muhsiniy” o‘yib yozilgan lavha bor. Bu uyda 1886-yilda Ayniyga otasi sovg‘a qilgan qora siyoh va qalamni ko‘rishingiz mumkin. Ikkinchi xonada 20-50-yillik eksponatlar (“Tojik adabiyoti namunasi” kitobi, mukofotlar, fan doktori diplomi, Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti lavozimida ishlagan stol va h.k.). Uchinchi xonada Ayniyning shaxsiy buyumlari (tayoqlar, soatlar, kiyim-kechaklar, pichoqlar, qaychi, choynak va piyola, qalam, sovg‘alar va boshqalar) joylashgan. To‘rtinchi xonada Sadriddin Ayniyga bag‘ishlangan asarlar (adabiy asarlar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, Ayniy asarlariga rassomlarning rasmlari, Ayniy asarlarining dunyoning turli tillariga tarjimalari va boshqalar) jami 2 mingdan ortiq. kitoblar). Beshinchi xona - anjumanlar zali, adabiy yig‘inlar uchun xona mavjud. Muzeyda Sadriddin Ayniy va uning do‘stlari ovozlari yozilgan plastinka va kassetalar saqlanadi. Har-yili muzeyga 1500 ga yaqin kishi tashrif buyuradi. 2021-yil noyabr oyi boshida bu uy-muzey buzish to‘grisida taklif chiqadi. Ammo xalq, olimlar talablari bilan hukumat bu uy-muzey ma’naviy boylik ekanligi va u buzilmasligi to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Rasm eksponatlar rasmi

Shuningdek, Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Sektare qishlog'i Sadridin Ayniy ko'chasida Ayniy va oilasining yana bir yodgorliklari saqlanadigan muzeyi bo'lib, u yerda ham ko'plab eksponatlar saqlanadi.



Buxoro viloyati G'ijduvon tuman davlat arxivida fond-3, ro'yxat-1, 1132- yig'ma jildda G'ijduvon tuman hokimligi tomonidan 1978-yil 19-iyulida qabul 29 qilingan 14/383-sonli qarori saqlanmoqda.

Mazkur arxiv hujjatida Sadridin Saidmurodzoda Ayniy o'zi tug'ilib yashagan qishlog'ida (G'ijduvon tuman Sektare qishlog'i) 500 kvadrat metrdan iborat ikkita xona hamda 255 37 tarixiy ekspozitsiyadan foydalangan holda uy muzeyini tashkil etish to'g'risida qaror qilingan

Oilasi



Sadriddin Ayniyning uch– Kamol Ayniy, Xolida va Lutfiya ismli farzandlari bo‘lgan. Kamol Ayniydan Eraj Ayniy va Laylo, Lutfiya Ayniydan Raxshona, Nigora ismli naberalari bo‘lgan. Kamol Ayniy –1928-yil 15-mayda

Samarqandda tug‘ilgan. Ayniyning katta farzandi. Kamol Ayniy yetuk sharqshunos olim sifatida ta‘nilgan. Kamol Ayniy – sharqshunos, adabiyotshunos, Tojikiston Fanlar akademiyasi akademigi, Sharqshunoslik bo‘yicha Oliy ta‘lim muassasalari akademiyasi akademigi, Rudakiy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari instituti katta ilmiy xodimi (1953-1958), Sharqshunoslik fanlari matn sektori mudiri, Adabiyot bo‘limi (1958-1966), yozma asarlarni o‘rganish va nashr etishda davlatlararo hamkorlik uchun Tojikiston SSR Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi (1965-1972), XXR Sharqshunoslik instituti Eron sektori mudiri, Tojikiston SSR tadqiqot bo‘limi boshlig‘I, Sharq qo‘lyozmalari xazinasini direktori, 1980— 1983 — YUNESKO huzuridagi Markaziy Osiyo 34 sivilizatsiyalarini o‘rganish xalqaro assotsiatsiyasi Sovet qo‘mitasi raisining o‘rinbosari , Tojikiston Respublikasi Sharqshunoslar uyushmasi raisi (1983— 2010) kabi sohalarda faoliyat yuritgan. Kamol Ayniy umri davomida adabiyotshunoslik bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirgan. Masalan, “Badriddin Hiloliy va uning “Layli va Majnun” qissasi” (1954), “Rudakiy ijodidagi she‘rlar” (1958), Abdurahmoni Jomiyning “Sulaymon va Absol” qissasi (1964), Xoji Kirmoniyning "Gullar va Navro‘z" (1972), Vosifiyning “Badoye-ul vaqoye” (hammuallif A.N. Boldirev, 1970) va boshqa ilmiy maqolalari, tanqidiy matnlar muallifi hisoblanadi. Kamol Ayniy faoliyati mobayniyda juda ko‘plab mukofotlar olgan.

Antropologiya bo‘yicha Forobiy xalqaro mukofoti (Eron , 2008), Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan va texnika xodimi (1996) shular jumlasidan. Kamol Ayniy

2010-yil 9-avgustda 82 yoshdavafot etdi. Sadriddin Ayniyning ikkinchi farzandi Xolida Ayniy Moskvada o'qigan sharqshunos olimi u arab rus tojik va ozbek tillarida tarjima asarlar yaratgan tarjimon hamdir. Xolida Ayniyning 1978-yil 4-aprelda chiqqan "Otam haqida bir necha satr" deb nomlangan maqolasida Sadriddin Ayniy hayoti haqida o'ta muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Xususan, maqolada shunday deyiladi: Ota avlodi 16-asrga borib taqaladigan Sadriddin Ayniy ikki xususiyatga ega bo'lgan: 1. She'riyatga moyillik va ilmiy fikrlash; 2. Itoatsizlik va erkin fikrlash ruhi, uning manbasi, albatta, g'ijduvonliklarning milliy xarakteri bo'lgan. Shuningdek kelib chiqish urug' haqida: "Urug' asoschisi Abu Abdullo Poyanda Soktaregi, Mavlonayi Soktare nomi bilan ham tanilgan, oxirgi uch Shayboniylar davrida yashagan", deyiladi. Xolida Ayniyning aytishicha, Sadriddin Ayniy Samarqandda kuniga 17-18 soat ilm bilan, adabiyot bilan mashg'ul bo'ladi. Shuningdek, Xolida Ayniy otasini yonida uni kutib uxlab qolganlarini ham qo'shimcha qiladi. Ayniyning uchinchi farzandi Lutfiya Ayniy-13-may 1934-yil Samarqandda tug'ilgan. Moskva Davlat universitetida tarix huquq sohasida ta'lim olgan. U 20- asr tojik san'ati tarixiga oid o'nlab asarlar yozgan. Uning Ayniyning Samarqanddagi uyi uy-muzeyga aylantirilishida hissasi katta. Lutfiya Ayniyning ikki qizi — Raxshona va Nigora farzandlari bor.

SADRIDDIN AYNIY HAYOTI VA IJODI BILAN BOG'LIQ MUHIM SANALAR:

1878-yil 15-aprel – Sadriddin Saidmurodzoda Ayniy Buxoro Amirligiga qarashli G'ijduvon tumanidagi Soktare qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan.

1884–1888-yillar – qishloq maktabida o'qib, dehqonchilikda otasiga yordamlashdi.

1898-yillarda – ota-onasi vabo kasalligidan vafot etdi. Oilada bosh bo'lib qoldi, dehqonchilik bilan shug'ullandi.

1890-yil sentabrda – Buxoroga o'qishga bordi, kishilar eshigida xizmat qildi, bir qancha madrasalarda o'qidi.

1896-yilda – "Qizil gul" nomli ilk she'rini yozdi. Unga "Ayniy" deb imzo chekdi. XX asr boshlarida Ahmad Donish ijodi bilan tanishdi. Rossiya, Hindiston va Misrda nashr etilgan forscha, tatarcha va boshqa tillardagi gazetalarini o'qidi.

1896-yil – Shahardagi deyarli barcha yig‘ilishlarda qatnashadi. Shoir Hayrat bilan tanishadi.

1896—97-yillar – Hojizoda madrasasida qoladi; shoirlar va adabiy davralarda muntazam qatnashadiganlar orasida taniqli shaxsga aylanadi.

1898-yil – Ko‘kaltosh madrasasiga ko‘chib o‘tadi va katta akasining turar joyida yashaydi.

1900-yil – Ahmad Donish va uning davom etayotgan “Navoder ulVaqoye” asari bilan tanishadi; kelajakdagi hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan mafkuraviy tarangliklarni tanlaydi.

1902-yil – Shoir Hayratning vafoti natijasida Amir Abdulahad Ayniyni tinchlantirish uchun uni saroy shoirlari qatoriga kiritishga behuda urinishadi.

1907-yil – Madrasani tugatdi. Sharifjon Maxdum Ko‘kaltosh madrasasidan joy sotib olib, Ayniyga beradi. Tatarcha usuli Jadid maktabida tarjimon bo‘lib ishladi. Mirza Abduvohid bilan Usuli Jadid maktabida tarjimon bo‘lib ishladi. Mirzo Abduvohid Munzim bilan birga Salloxxonada uning uyida Usuli Jadid maktabini ochdi.

1908-yil – Samarqandga Abdulqodir Shakuriy o‘qitgan yangi usuldagi maktablar bilan tanishish uchun sayohat qiladi. 1909-yilda – yangi tashkil etilgan maktabni “Tartil al-Qur’on”, “Tahzib as Sibyan”, “Zaruriyati dini” darsliklari bilan ta’minlaydi. Yangi usul maktabi amir hukumatining farmoni bilan yopiladi. Ayniy Buxoroni tark etishga majbur bo‘ladi.

1910-yil – “Bolalar ta’limi” yashirin guruhining tashkil etildi. Ayniy ko‘zga ko‘ringan pedagog sifatida e’tirof etilgan. 1915-yil – Ayniy Qushbegi (Bosh vazir) tomonidan shaxsan chaqirildi; Qiziltepadagi paxta zavodida ishlaydi.

1916-yil noyabrda – Ayniy Buxoroning mashhur Xiyobun madrasasiga muallim etib tayinlandi. 1917-yil 7-aprel – Amirning islohot to‘g‘risidagi farmoni Yosh buxoroliklar tomonidan nishonlandi.

1917-yil 9-aprel – Revolyutsion chiqishlar sababi bilan Ayniy qamoq va qattiq qiynoqlar bilan obxonaga tashlanadi. 1917-yil 9-aprel – amirga qarshi namoyishda ishtirok etganlikda ayblanib qamaldi va 75 darra bilan jazolandi. Og‘ir yarador holda zindonga tashlandi.

1917-yil aprel-may – Kogondagi kasalxonada davolandi.

1917-yil iyunning boshi – Samarqandga ko‘chib ketdi. 1917-yil 25-aprel – Ayniy bilan birga mahbus Mirza Nasrullo vafot etdi. Nasrulloni ham xuddi Ayniy qiynalgandek qiynagan

1917-yil iyun – Ayniyning Samarqandga uchinchi va oxirgi safari bo‘ladi.

1918-yil mart oyi – Kalisov Buxoroga muvaffaqiyatsiz hujum qildi. Ayniyning kenja ukasi Sirojiddin o‘ldiriladi.

1918-yil aprel – Ayniy o‘zining birinchi inqilobiy she‘rlarini yozadi. Ayniy Samarqanddan Toshkentga jo‘nab ketadi.

1918-yil oktabr – Samarqandga qaytib, birinchi sovet maktablaridan biriga o‘qituvchi etib tayinlanadi. Ayniy o‘zining “Marshi Hurriyat” (Ozodlik Madhiyasi) ni yozadi.

1919-yil II yarmi – o‘zbek tilida chiqqan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi va tojik tilida nashr etgan “Shu‘lai inqilob” (“Inqilob shu‘lasi”) jurnalida ishladi. Ularda o‘zbek va tojik tillaridagi she‘r va maqollar muntazam ravishda bosilib turdi.

1919-yil – S.Ayniy Samarqanddagi Inqilobiy jurnallarda ishlaydi. Publitsistik maqolalar bilan bir qatorda o‘zining inqilobdan keyingi “Tarixi Inqilobi Buxoro” asarining o‘zbek tilida va “Tarixi Amironi mang‘it”ning tojik tilida ilk qismlarini nashr etadi. Ayniy ko‘magida Samarqandda “Bolalar yo‘ldoshi” nomli ilk bolalar jurnali nashr etiladi. 1920-yil avgust-noyabr – “Buxoro jallodlari” povestini yozdi.

1920-yilda “Buxoro inqilobi tarixi materiallari” asarini yozdi.

1920-yil – Ayniy Samarqandda oila quradi.

1920-21-yil – Samarqanddagi Buxoro yuridik firmasiga rahbarlik qiladi.

1921-yil – Buxoroning Samarqanddagi konsulxonasida konsultant bo‘lib ishladi.

1922-yil – “Buxoro jallodlari” romanining Toshkentda “Inqilob” jurnalida nashr etiladi.

1922-yil mart – katta akasi Muhiddinxo‘ja boshmachilar qo‘lida halok bo‘ldi. (Qabri Suktare qishlog‘ida)

1923-yil –Buxoroda Ayniyning tojik tilida “Aygari Inqilob” va o‘zbek tilida “Inqilab uchqunlari” nomli she’riy to‘plamlari nashr etildi.

1923-yil – Buxoro Xalq Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi a‘ziligiga saylandi.

1924-yil – “Odina” (Odina) romanining birinchi varianti “Avazi tojik”da chop etildi.

1926-yil – Tojik nashriyoti markazi tashkil etildi, Sadridin Ayniy unda maslahatchi va ilmiy yozuvchi bo‘lib ishlaydi.

1927-yil – “Odina” romani nashr etildi. Birinchi tojik romani “Doxunda" (Daxunda) niyozishni boshlaydi.”

1928-yil –Til va yangi tojik alifbosiga oid bir qancha maqolalar yozadi.

1929-yil – P.P.Videnski tarjimasida rus tilida “Odina” romani nashr etildi.

1931-yil – “Daxunda” tojik va o‘zbek tillarida nashr etilgan. Rahim Hoshimlar yordami bilan Ayniy boshlang‘ich maktablarda o‘qitish uchun materiallar tayyorlaydi va Tojikiston Mehnat Qizil Bayrog‘i bilan taqdirlanadi.

1932-yil – “G‘ulomon” (Qullar) romanini o‘zbek tilida yozadi.

1933-yil –Tojikiston hukumati Ayniyga vaqtini ijodiy yozishga sarflashi uchun unga pensiya tayinladi.

1934-yil avgust – Sovet yozuvchilarining birinchi qurultoyi. Ayniy Gorkiy bilan shaxsan uchrashadi. Ayniyning Privleniya SSSR a‘ziligiga saylanishi.

1935-yil – “G‘ulomon”ning tojikcha varianti va “Yodgori” she’riy to‘plami nashr etildi.

1936-yil – “Fardavsiy va uning shohnomasi” maqolasi nashr etildi.

1936-38-yillar – “Lug‘ati Nimtasiliya Zaboni Tojik”ning tashkil etilishi. Bu asar 1976-yilgacha nashr etilmagan.

1937-38-yillar – “Margi sudxur” romani va uning asosi “Qarz beruvchining o‘limi” ilmiy asari yoziladi.

1941-44-yillar – O‘zbekiston AFF faxriy a‘ziligiga saylandi.

1945—46-yillar —«Jang va Safar» qassidasining yozilishi va Abdulqodir Bedil haqidagi ilmiy izlanishlarning yakunlanishi bo‘ladi.

1947-yil – Tojikiston Oliy Soveti deputatligiga saylovda qatnashadi.

1948-yil – Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida monografiya yozadi. Yetmishyilligini nishonlashda Lenin ordeni bilan taqdirlangan.

1949-yil – SSSR Oliy Kengashi deputati etib saylangan. Leningrad universiteti tomonidan filologiya fanlari doktori unvoni berilgan. “Yoddoshlar”ning dastlabki ikki jildining tugallanishi. Uchinchi marta Lenin ordeni bilan taqdirlangan.

1950-yil – Tojikiston SSR Fanlar Akademiyasining tashkil etilishi va Ayniyning uning prezidenti etib tayinlanishi.

1953-yil – “Esdaliklar” asarining o‘zbekcha versiyasi ustida ishlagan. Tavalludining 75-yilligi munosabati bilan “Mehnat Qizil Bayroq” ordeni bilan taqdirlangan.

1954-yil – “Yoddoshlar”ning 4-jildini yakunladi.

1954-yil may – Ayniy Tojikiston Yozuvchilar uyushmasi Plenumida oxirgi ma’ruzasini o‘qidi.

1954-yil 15-iyun – Dushanbe shahrida vafot etdi va o‘z nomi qo‘yilgan parkda dafn etilgan.

SADRIDDIN AYNIY HAYOTI VA IJODNING O‘RGANILISHI

Sadriddin Saidmurodxo‘ja Ayniy asarlarini tarjima qilish, o‘rganish o‘z hayotlik davridayoq boshlangan. Masalan, bu borada Tojikiston Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, professor I.S.Braginskiyning xizmatlarini alohida ta’kidlash zarur. Uning “Sadriddin Ayniy” (Stalinobod, 1954) monografiyasi va qator maqolalarida adibning ijodiy yo‘li va o‘ziga xos uslubi qiziqarli yoritilgan. Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Nosirjon Ma’sumiyning “Tojik adabiy tilining rivojlanishiga oid ocherklar” (Stalinobod, 1959) monografiyasida, filologiya fanlari nomzodi Muhammadjon Shukurovning “Ustod Ayniy “Esdaliklar”ining g‘oyaviybadiiy xususiyatlari” (Dushanbe, 1966) monografiyasida “Esdaliklar” asarini tahlil etiladi. A.Maniyozov “S. Ayniy she’riyati va publitsistikasi” (1958) va H.Niyozov “Shoir Sadriddin Ayniyning ijodiy yo‘li” (Moskva, 1965) nomli asarlarida adibning

poetik va publitsistik ijodi ustida to'xtalib o'tganlar. Tojikiston Fanlar akademiyasining akademigi Zarif Rajabovning "S.Ayniy – tojik xalqi tarixchisi" (1951) kitobida S. Ayniy tarixchi sifatida gavdalandirilgan, uning badiiy asarlaridagi tarixiy voqeaning hayotiyliigi ko'rsatilgan. Shuningdek, H.Mirzozoda, R.Xodizoda, M.Shakuriy, Z.Rajabov, S.Tabarov, X.Asozoda, A.Mahmadaminov, M.Imomov kabi tojik tadqiqotchilarning ilmiy ishlari mavjud. H.Mirzozodaning "Sadridin Ayniy va 20-asr boshlaridagi maktab masalasi", "Ustod Ayniy va 20-asr boshlari ma'rifatparvarlari" ilmiy maqolalari, Kamoliddin Sadridinzoda Ayniyni "Ustod Ayniy va XX asr boshi ma'rifatparvarlari" nomli ilmiy maqolalari ana shunday tadqiqotlarga misol bo'la oladi. M.Shakuriyning "Ravshangari buzurg" ("Buyuk ma'rifatparvar"), "Nigohe ba adabiyoti tojiki sadai bist" ("XX asr tojik adabiyotiga bir nazar") ilmiy asarlari va maqolalari bor. Sadridin Ayniy merosini o'rganishda uning farzandlari Xolida Ayniy va Kamol Ayniylarning yig'uvchilik va tadqiqotchilik ishlarini ta'kidlab o'tish lozim. Braginskiy, Z. Osmanova singari moskvalik olimlar ham adib ijodining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etganlar. O'zbek adabiyotida esa N.Mallayev, N.Rahimov, G'.Sobirova, M. Hasanov singari adabiyotshunoslar qator maqola va monografiyalarni Sadridin Ayniyga bag'ishlaganlar.

Foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar :

Ayniy, S. Sudxo'ring o'limi [Matn]: / qissa / Sadridin Ayniy.– Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 152 b.

Ayniy, S. Odina / qissa / Sadridin Ayniy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 132 b.

Ayniy, S.Eski maktab : Qissa. – Toshkent: Kamalak nashriyot uyi, 2018. – 162 b.

Ayniy, S. Asarlar 8 jildlik Qullar romani . – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 182 b.

Ayniy, S . Besh kitob va ikki she'r – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 162 b.

Ibrohim , H. Bedilshunos Sadridin Ayniy. – Toshkent: Yoshlik nashriyot uyi, 2021. – 172 b.

Ochilov , E . Sadridin Ayniy haqidagi hikoyalar. – Toshkent: Kamalak nashriyot uyi, 2021. – 152 b.

